

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ERDANOV ZAFAR DAMINOVICH

**O‘ZBEK SHE’RIYATINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA G‘OYAVIY-
BADIY PAFOS VA MILLIYLIKNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI
(ZULFIYA LIRIKASI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Erdanov Zafar Daminovich

O‘zbek she‘riyatining inglizcha tarjimalarida g‘oyaviy- badiiy pafos va milliylikni qayta yaratish muammolari (Zulfiya lirikasi misolida)..... 3

Эрданов Зафар Даминович

Проблемы воссоздания идейно-художественного пафоса и национального колорита в английских переводах узбекской поэзии (на примере лирики Зулфии)..... 23

Erdanov Zafar Daminovich

Problems of recreating ideological and literary pathos and national color in English translations of Uzbek poetry (on the example of Zulfiya’s lyrics) 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ERDANOV ZAFAR DAMINOVICH

**O‘ZBEK SHE‘RIYATINING INGLIZCHA TARJIMALARIDA G‘OYAVIY-
BADIY PAFOS VA MILLIYLIKNI QAYTA YARATISH MUAMMOLARI
(ZULFIYA LIRIKASI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/Fil3007 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xolmurodov Abduhamid**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Hasanov Shavkat Ahadovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Jizzax davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc 03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil « 24 » iyun soat 17⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (412 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil « 11 » iyun kuni tarqatildi.

(2024-yil « 11 » iyun dagi 24-08 - raqamli reestr bayonnomasi.)



D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

F.M.Xajiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon qiyosiy adabiyotshunosligida turli millatlar adabiyotining eng nodir durdonalarini asliyat mazmuni va badiiy shaklini saqlagan holda tarjima qilish, asarning o‘ziga xosliklari va poetik xususiyatlarini qayta ifoda etish kabi masalalarni ilmiy o‘rganish, tarjima qilish va taqdim etish masalalari tadqiqiga qiziqish yana kuchaydi. Bu sohada xalqaro miqyosda qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillari va xususiyatlarini mukammal o‘rgangan holda, o‘zbek adiblari asarlarining rus, ingliz, shuningdek, boshqa xalqlar tillariga tarjima qilishdagi muammolarni aniqlash hamda yechimini izlab topish, tarjimada madaniyatlararo tafovutlarning ifodalanishini tadqiq qilish, muayyan ijodkor asarlarini tarjimashunoslik va badiiyat qonuniyatlari asosida o‘rganish yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida hozirgi globallashuv davrida millatlararo va adabiyotlararo aloqalarning rivojlanish jarayonida ma’naviy-ma’rifiy, siyosiy, ilmiy sohalaridagi hamkorlikda badiiy asarlar tarjimasi muammolarini tizimli tahlil qilish, o‘rganish, ularning yechimini topish va taklif qilish bo‘yicha muhim izlanishlar olib borilmoqda. Butun dunyoda badiiy tarjimachilik ishi yildan-yilga kengayib borayotgan bir vaziyatda qiyosiy adabiyotshunosligimiz va tarjimashunosligimiz tarixi jarayonlarini chuqur o‘rganish, tarjimada asar asliyatining poetik jihatlarini ochib berish, shoira Zulfiya she’riyati namunalarining turli tillardagi tarjimalarini qiyoslash, masalaga bugungi kun ilm-fani talabi asosida yondashilib, tarixiylik, ilmiylik va badiiylik nuqtai nazaridan aniq nazariy umumlashma va ilmiy xulosalarni nazariy dalillashga xizmat qiladi.

Mustaqillik davrida mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy-ma’rifiy hayotida yangi davrga yo‘l ochildi. “Bugungi kunda “Adabiy do‘stlik – abadiy do‘stlik” degan chuqur ma’noli tamoyiliga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o‘zbek tiliga, o‘zbek durdonalarining esa ingliz tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g‘oyat jiddiy e’tibor qaratmoqdamiz. Yurtimizda dunyo adabiyotining bebaho mulki bo‘lgan ming-minglab asarlar tarjima qilinib, kitobxonlar qalbidan joy olgani, badiiy tarjima va tarjimashunoslik bo‘yicha o‘ziga xos ijodiy maktab shakllanganini alohida ta’kidlash lozim”¹. Jumladan, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi – o‘zbek adabiyoti, xususan, o‘zbek she’riyati tarjimalarini o‘rganishga oid izlanishlarning yangi bosqichga ko‘tariladigan davri yetib, har bir shoir she’rlari tarjimalariga alohida estetik hodisa sifatida qaralayotganligi, poetik tamoyillar va xususiyatlarining birgalikdagi qayta ifodasi yuzasidan yangicha nazariy qarashlarning paydo bo‘layotganligi qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikda hal etilmagan muammolar tadqiqiga bo‘lgan qiziqishning ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur tadqiqot, ayniqsa, shu jihatlari bilan dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili

¹ Mirziyoev SH. M. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferentsiya materiallari. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. –B. 56.

sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrda 984-son “Davlat tilini rivojlantirish departamenti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida’gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik fanini o‘rganishga qiziqish gumanitar fanlar sohasida juda ham munozaralidir. Ayrim hollarda kamchiliklar doirasidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan tadqiqotlarning mavjudligi dunyoning barcha yuqori taraqqiy etgan tillarida mavjud. Shoira Zulfiyaning lirik kechinma manbalari, she‘rlarining g‘oyaviy-badiiy pafosi, milliylik xususiyatlari, muallif va lirik qahramon o‘rtasidagi, o‘quvchi tasavvuridagi o‘zaro nisbat teng. Olamni badiiy idrok etish hamda badiiy voqelantirish tadriji tushunchalari V.Humboldt izdoshlari, ayniqsa, A.Potebnya, A.N.Sokolov, G.N.Pospelov, O.Uorren, R.Uellek ilmiy asarlarida alohida tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganilgan².

Zulfiya lirik asarlari tadqiqot olib borish uchun juda katta ahamiyatga egaligi bilan birga, ayrim xususiyatlariga ko‘ra izchillik, ayrim tomonlariga ko‘ra munozaralilik kasb etadi. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha A. Olimjon, O.Ikromov, G‘.Musina, M.Sultonova, L.Qayumov, N.Karimov, I.G‘afurov, A.Akbarov, X. Umurov, O. Hojjeva, H.Hasanova, G.Umurova, R.N.Qayumov va boshqalar tomonidan turli yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan³. O‘tgan asrning o‘rtalarida

²Potebnya A.A. Teoreticheskaya poetika. M.:1990; Sokolov A.N. Teoriya stilya.Moskva:1968; Pospelov G.N. Voprosi metodologii i poetiki. -Moskva:2003., Uorren O., Uellek R. Teoriya literaturi. Moskva. Progress. 1987

³ Olimjon A. Shoira Zulfiya.UzFA nashriyoti.1953. 124 b. Ikromov O. Shoira Zulfiya. T.: O‘zDU asarlari.№63.Samarqand 1956; Ikromov O. Tanlangan asarlar. T.:G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1977. Musina G‘.Zulfiyaning ijodiy yo‘li.T.: O‘zadabiy nashr, 1971. Sultonova M. Ijodkor laboratoriyasidan. //O‘TA, 1985, № 6. Qayumov L. Zulfiya. T.: Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1975.Karimov N. Adabiy aloqa va badiiy tarjimaning yangi ufqlari // O‘zbek tili va adabiyoti . Toshkent, 2015 № 3, 4-b. Zulfiya. Ma’rifiy biografik roman. – T.: G‘.G‘ulom NMIU, 2015.G‘afurov I. Zulfiya siy mosi.//Sharq Yuluzi.T.: 2015.№1. Akbarov A. Zulfiya. - T.Izdatelstvo literaturi i iskusstva imeni G.Gulyama, 1975.Umurov X. Qo‘sh qanot sehri. T.: .: G‘.G‘ulom nomidagi AS, 1982. 143 b.; Umurov X.She‘riyat malikasi.T.: Navro‘z, 2015.Hojjiyeva O. To‘rt tanho. T.: O‘zbekiston, 2013.Hasanova H. Ayol qalbining kuychisi.T.: Fan, 1975; Maktabda Zulfiya ijodini o‘rganish. T.: O‘qituvchi 1991.Umurova G.X. Zulfiya badiiy olami va poetik maktabi. Filologiya fanlari doktori (DSc) diss... avtoref. Samarqand, 2019; Qayumov R.N. O‘zbek xalq afsona va rivoyatlarining ingliz tiliga tarjimasida milliylikning ifodalanishi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Aftoreferati, Buxoro-2022; Sa‘dulloyev B. XX asr Amerika adabiyotida inson ruhiyati tasviri. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. aftoreferati, Buxoro-2022; X. Xamdanova. O‘zbek va ingliz tillarida somatizmlar asosida shakllangan maqollarning lingvokognitiv xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. aftoreferati, Buxoro-2022; Ingliz va o‘zbek

Zulfiyaning 60 dan oshiq she'rlari tarjimonlar I.Lisyanskaya, Yu.Neyman, N.Grebnev, S.Lipkin, V.Derjavin, S.Somova, A.Naumov va S.Ivanov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan edi.⁴

O'zbek adabiyotshunos olimlari G'.Salomov, N.Komilov, A.Umarov, A.Abduazizov, D.To'rayev, M.Baqoyeva, M.Axmedov, N.Jabborov, O.Safarov, S.Olimov, Z.Isomiddinov, J.Lapasov, M.Kurbaniyazov, D.Sharipova, F.Sharipova, M.Ahmedova va boshqalarning tarjimashunoslik va o'zbek badiiy adabiyot asarlar poetikasini tadqiq etishga qaratilgan muhim tadqiqotlari mavjud.⁵ Shuningdek, Zulfiya badiiy olami va uning asarlari poetikasi bo'yicha o'zbek tilshunosligida ham maxsus tadqiqotlar olib borilgan.⁶

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2022-2025 yillarga mo'ljallangan "Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-pedagogik mohiyati" mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek she'riyatining inglizcha tarjimalarida g'oyaviy-badiiy pafos va milliylikni qayta yaratish muammolarini Zulfiya lirikasi misolida aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

qiyosiy adabiyotshunoslik kontseptsiyasi asosida Zulfiya ijodidagi lirik asarlar misolida poetik obrazlar tipologiyasini aniqlash va ularning tarjima variantlarida tadqiq etish;

Zulfiya she'rlarining inglizcha tarjimalarida g'oyaviy-badiiy pafos va milliylik in'ikosini ochib berish;

she'riyatida shaxs sifatlarining fitonimlar vositasida poetik ifodalanish xosliklari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doctori (PhD) diss. aftoreferati, -Buxoro,2022.

⁴ Зульфийа. Сердце в пути. Стихи Изд.литер. им. Г. Гуляма. –Ташкент,1966.

⁵ Salomov G', Tarjima nazariyasiga kirish. Qo'llanma. -T.: O'qituvchi, 1978; Tarjima nazariyasi, T.:Fan, 1976; Komilov N., Salomov G. Do'stlik ko'priklari.-Toshkent, Adabiyot va san'at, 1979. Komilov N. Tafakkur karvonlari. -Toshkent.: Ma'naviyat, 1999.; Umarov A. Yuksak san'at yo'lida.- Toshkent.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990; Abduazizov A. Sharq xalqlari G'arb nazarida // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1990, 18 may; To'rayev D. Mumtoz ijod saboqlari.T.:, 2016; Bakayeva M. Problemi perevoda angliyskoy poezii na uzbekskiy yazik (na mat-le perevodov proizvedeniy Bayrona). Avtoref. diss... kandidata filol. nauk. – T., 1980 ; Baqoyeva M. Angliya, AQSH adabiyotidan o'zbek tiliga she'riy tarjima va qiyosiy she'rshunoslik muammolari. Filol. fanlari doktori... diss. avtoreferati. – Toshkent, 2004 ; Axmedov M. Interperatatsiya poetiki «Ramayani» v uzbekskom perevode. Avtoref.kand. fil.nauk. T.: 1992; Jabborov N. Zamon.Mezon.She'riyat. T.:2015; Safarov O. Tarjima ilmining azaliy muammosi./ Istiqlol va til. Oliy ta'lim muassasalariaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. T.: O'zbekiston davlat Jahon tillari, 2005; Isomiddinov Z. Turkiy epos va tarjima masalalari.- Toshkent: Universitet1995; Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. T.: O'qituvchi, 1995; Kurbaniyazov M. Zulfiya she'riyatida kichik qahramon badiiy evolyutsiyasi/ Filologik tadqiqotlar. T.: Fan, 2006; Sharipova D. Ingliz va o'zbek tillarida so'z ko'pma'noliligi va hajm munosabati. / Filologiya masalalari.T.:Fan, 2007; Sharipova F, Ahmedova M. Tarjimada realiyalarning berilishi va ularning taxminiy turlari/ Germanistika va romanistikaning O'zbekistonda taraqqiyoti hamda kelajagi, Buxoro, 2008; Tarjima nazariyasi. Maqolalar to'plami. T.: Fan, 1961; Mamatova X.N. Perevodcheskoye masterstvo poetessi Zulfii. AKD.T.:1980; Umurova G. Zulfiya ijodi va rus adabiyot i. Samarqand, AKD. 2004; Novikova A. Sravnitelniy analiz proizvedeniy Chingiza Aytmatova na russkom, nemetskom i angliyskix yazikax. Avtoref.kand. fil.nauk. Moskva.: 2006; Yusupova H. O'zbek xalq og'zaki nasri namunalarning inglizcha tarjimalarida milliy koloritning ifodalanishi (ertaklar, latifalar misolida) Fil.fan. nomz diss...avtoreferati T.: 2011.; Raximov T. Perevodcheskoye masterstva Chulpana /na materiale uzbekskix perevodov poeticheskix i dramaticheskix proizvedeniy A.S.Pushkina/ diss.kand. fil.nauk. T.: 1993.

⁶Qo'ng'urov R.Q., Karimov S.A. Zulfiya poeziyasi tilining lug'ati (Konkordans). T.: 1973

Zulfiya she'riyati poetik tamoyillarini inglizcha tarjimada berish hamda asarlardagi obrazlarni tarjimadagi asliyatni saqlab qolish omillarini aniqlash; tarjimada madaniyatlararo tafovutlarni ochib berish; unda badiiy detalning vazifalari, poeziya bilan bog'liqligini tekshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Zulfiya she'rlarining ingliz tiliga tarjima qilingan asarlari tanlangan.⁷

Tadqiqotning predmeti o'zbek she'riyatining inglizcha tarjimalarida g'oyaviy-badiiy pafos va milliylikni qayta yaratilish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada transformatsion, qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual-situativ, kontekstual-distributiv, tasniflash tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o'zbek she'riyatining inglizcha tarjimalarida g'oyaviy-badiiy pafos, milliy ruh ifodasi, obraz va obrazlilikni aks ettirish asliyat va tarjimadagi hajm, sifat va qamrov jihatidan farqlari, adekvat tarjimaga erishish, kontekstual vaziyat, shakl va mazmun mutanosibliigi, tillararo struktur, system, funksional, derivativ tabiati, dinamik xarakterining ustuvorligi kabi tamoyillar asosida kechishi isbotlangan;

Zulfiya she'rlarini ingliz tiliga tarjima qilishda shoiraning dunyoqarashi, jamiyat va taraqqiyotga munosabati, asarlarida ilg'or gumanistik va demokratik g'oyalarning alohida ta'kidlanishi, lirik-intellektual uslubning qo'llanishi, poetik tasvirlash tarzining milliy xususiyatlari ustivorligi asoslangan;

o'zbek she'riyatining inglizcha tarjimalarida ko'chim, tashbeh, talmeh, tashxis, epitet, metafora, metonimiya, anafora kabi uslubiy vositalarning badiiy pafos va milliylikni voqelantirishi hamda ifoda zichligini ta'minlashdagi funksional samaradorligi aniqlangan;

she'riy asarlardagi obrazli uslubiy vositalarning o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasida o'sha xalqning urf-odatlarini, maishiy hayoti, intellekti, tildan foydalanuvchi millat madaniyati, mafkurasi bilan shartlanganligi mazkur lisoniy birliklarni diaxronik (tarixiy taraqqiyot kesimida) usul vositasida tarjima qilish ustuvorlik kasb etishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jahon adabiyotshunosligida sohaga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar ilmiy-ommabop manbalarni qamrab olgan elektron platforma va interaktiv elektron darslik yaratilgan;

bevosita va bilvosita tarjimada asliyat tili mansub xalqning mental jihatlari, urf-odat va an'analari tarjima tili mansub xalq bilan muvofiqlik/nomuvofiqlik holatlari belgilangan hamda badiiy tasvir vositalarini o'g'irishda ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillarining o'rni ilmiy baholangan;

Zulfiya asarlarini ingliz tiliga tarjima qilish usullari, strategiyalari yuzasidan bir qator nazariy va amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi xorij va respublika miqyosida ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ilmiy-amaliy konferentsiyalarda o'qilgan ma'ruzalar, nashr etilgan tezis va maqolalar, hamda obyektga ilmiy yondashuv va

⁷ Zulfiya. "I was love" translated by B.Kholbekova. Akadennashr. Toshkent-2016

qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, obyekt sifatida olingan manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Zulfiya lirikasi bilan bog'liq aslyat va tarjima muammolari yechimi bo'yicha ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqilgani, lirik talqinda adekvat yondashuvning o'ziga xos yo'nalishlarining o'rni va ahamiyati, Zulfiya she'riyati tarjimalarida so'zlarning qayta yaratilishi va g'oyaviy-badiiy pafos, milliylikni saqlab qolish omillari monografik tadqiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sifatida dissertatsiya xulosalari va tavsiyalaridan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Hozirgi adabiy jarayon", "Badiiy tahlil asoslari", "Tarjima nazariyasi", "Stilistika", "Adabiyotshunoslik nazariyasi" kabi fanlardan darslik va qo'llanmalar yaratish, ma'ruza, amaliy hamda seminar mashg'ulotlari o'tishda, magistrlik dissertatsiyalari yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Zulfiya she'riyatining inglizcha tarjimalarida g'oyaviy- badiiy pafos va milliylikni qayta yaratish muammolarini aniqlash jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

Zulfiya asarlari inglizcha tarjimasida g'oyaviy-badiiy pafos, milliy ruh ifodasi, obraz va obrazlilikni aks ettirish aslyat va tarjimadagi hajm, sifat va qamrov jihatidan farqlari, adekvat tarjimaga erishish kontekstual vaziyat, shakl va mazmun mutanosibliigi, tillararo struktur, system, funktsional, derivativ tabiati, dinamik xarakterining ustuvorligi kabi tamoyillar asosida kechishiga oid nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining 2019-2020 yillarda bajarilgan "Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konseptsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2021-yil 13-yanvardagi №01-12-01-162-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiya xulosalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar "yo'l xaritasi" ijrosida o'z aksini topgan.

Zulfiya she'rlarini ingliz tiliga tarjima qilishda shoironing dunyoqarashi, jamiyat va taraqqiyotga munosabati, asarlarida ilg'or gumanistik va demokratik g'oyalarning alohida ta'kidlanishi, lirik-intellektual uslubning qo'llanishi, poetik tasvirlash tarzining milliy xususiyati bilan belgilanganligi oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpoo'iston bo'limining 2023-yil 10-apreldagi №17.01/208-son ma'lumotnomasi). Natijada Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjima nazariyasi fanida poetik tamoyillarning mazmun va mohiyati tadqiqi innovatsion yondashuv asosida hal etish muammolari mumkinligi asoslab berilgan.

Zulfiya she'rlarining inglizcha tarjimalarida ko'chim, tashbeh, talmeh, tashxis, epitet, metafora, metonimiya, anafora kabi uslubiy vositalarning badiiy pafos va

milliylikni berish hamda ifoda zichligini ta'minlashdagi funksional samaradorligiga doir ilmiy xulosa va tavsiyalardan Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan I-204-4-5 "Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida virtual resurslar yaratish va o'quv jarayoniga joriy etish" mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 6-sentyabrdagi №2439/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada tarjimada g'oyaviy-badiiy pafos va milliylikni qayta yaratish muammolari bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalardan xalqaro loyihaning platformadagi kontentni yaratishda va loyiha modullaridagi tarjimaga oid elektron bazasini ishlab chiqish jarayonida muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

she'riy asarlardagi obrazli uslubiy vositlarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda o'sha xalqning urf-odatlarini, maishiy hayoti, intellekt, tilni ishlatuvchi millat madaniyati, mafkurasi bilan shartlanganligi mazkur lisoniy birliklarni tarjima qilishda diaxronik (tarixiy taraqqiyot kesimida) usulning ustuvorligini belgilashi bilan bog'liq xulosa va natijalardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasida "Adabiy muhit" ko'rsatuvining "Millatlararo bag'rikenglik" mavzusiga bag'ishlangan soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2020-yil 28-dekabrdagi №01-02/130-son ma'lumotnomasi). Natijada Zulfiya asarlarida millatlararo totuvlik, qardoshlik g'oyalari asosidagi geografik obyektlar, mazkur xududlarda istiqomat qiladigan xalqlarning dunyoqarashi, urf-odatlarini mujassamlashgan she'rlarning boshqa tillardagi tarjimalarida o'ziga xosliklari xususida adabiy-badiiy suhbat tashkil etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 134 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Zulfiyaning poetik mahorati va badiiy niyatining inglizcha tarjimasida qayta ifodalanishi**" deb nomlangan dastlabki bobi uch faslni o'z ichiga olgan. Bobning birinchi faslida "Qiyosiy adabiyotshunoslikda tarjima muammolari" ilmiy muammo sifatida tahlilga tortiladi. O'zbek tarjimashunosligi ko'p asrlilik tarixga ega. Bu masalaga zamonaviy filologiya nuqtai nazaridan yondashganimizda, o'zbek badiiy tarjimashunosligi va qiyosiy adabiyotshunosligida juda ko'p mutarjimlar, tarjimashunos olimlar, tarjima nazariyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarning faoliyatidagi

tarjima ishlarining mazmun va mohiyati, yo‘nalishlari haqida ijobiy hamda salbiy, ayrim holatlarda munozarali fikrlar bildirishimizga to‘liq asos bor. Mazkur sohadagi erishilgan yutuqlar va muammolarni ushbu tadqiqotning mazmuniga singdirilgan ayrim ilmiy xulosalarimiz natijalari vositasida tavsiflashga harakat qildik.

Qiyosiy adabiyotshunoslikda tarjima muammolari haqida G‘.Salomov tadqiqotlarida asliyat va tarjima tillari qiyosiy tipologik hodisalarining vazifalarini qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganib chiqish tarjimonga dalillangan nazariy qurol tutqazgani holda, ...qiyosiy adabiyotshunoslik badiiy tarjima sohasidagi ijodkorlikning zaruriy burchi va tarjimonlik asosidir⁸, degan ilmiy xulosa berilgan.

Sh. Sirojiddinov va G. Odilova tadqiqotlarida badiiy asar tarjimasida qiyosiy tipologik vositalar silsilasining o‘ziga xos ravishda rang-barang shakl va ko‘rinishlarda qo‘llanilishidan iborat bo‘lib, bu vosita va usullar yig‘indisi mazkur asar badiiy qiymatini hamda obrazli va obrazlilik asoslarini tashkil etishi bayon qilingan. Tarjima amaliyotini qiyosiy adabiyotshunoslik qonun-qoidalari asosida tadqiq etish jarayonida alohida komparativistik birliklar shu vosita va usullar tartibiy majmuasi tarkibidan shartli ravishda ajratib olib ilmiy tahlil qilinadi.⁹

Zero, asar badiiy-obrazli asosini tashkil etadigan komparativistik vosita va usullar yig‘indisining tarjimada qay darajada aks etganligi ko‘p jihatlardan uning tarkibidagi alohida qiyosiy tipologik vositalar vazifalarining qayta yaratilishi darajasiga bog‘liqdir. Ammo tarjimaning asliyat ruhini qay yo‘sinda ifoda eta olganligi haqidagi yakuniy xulosada matniy uyg‘unlik asosida yasaladigan badiiy tarjima jarayonlari ham bevosita yoki bilvosita tavsif etiladi. Badiiy asarlar tarjimasida tahlili shundan guvohlik beradiki, jumladan, Zulfiya asarlari tarjimasida asliyatning ohorini, o‘ziga xos til va uslubini, badiiy tasvir va ifoda vositalarini, badiiy-estetik quvvatini tiklash mas‘uliyati uning asl nusxaga zohiriy, ya‘ni moddiy jihatdan aynan mosligidan voz kechib, vazifaviy uyg‘unligini vujudga keltirish zaruratini tug‘diradi. Biroq har bir milliy tildagi tafakkur tarzining mustaqil holda shakllanishi, binobarin, ikki yoki bir necha til qiyosiy tipologik vositalari ifoda usullari va mazmuniy xususiyatlarining aksariyat o‘ziga xos ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi tufayli, tabiiyki, tarjima tilida asliyat hodisalari mazmuniy-uslubiy vazifalarini aks ettiradigan muqobil vositalar ba‘zan nomuvofiq kelishi, topilmasligi mumkin.

M.Xolbekov tadqiqotlarida tarjimon tarjima amaliyotining boshqa ijodiy usullari bilan bir qatorda, goho tarjima amaliyotining tasviriy usuliga, uning fonetik, fonologik, morfonologik, orfoepik xususiyatlariga tayanishga murojaat qilishi ko‘rsatiladi. Til birliklarining muallif yoki asar qahramonlari his-hayajonini, u yoxud bu voqea-hodisalarga nisbatan bahosini ifodalaydigan qo‘shimcha ma‘noli lisoniy vositalari ta‘sirli so‘z va so‘z birikmalari yordamida badiiy ta‘sirchan bo‘lmagan holda o‘giriladi.¹⁰

Tarjimaga bus-butun adabiy hodisa deb qarash, yaratilgan badiiy matnning janriy xususiyatlari va shaklini o‘zida aks ettirish, tarjimada asl nusxaning tilini bilishdan tashqari, asliyat xalqning hayotini ham bilish (ekstralingvistik omillar)

⁸Salomov G‘. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, “O‘qituvchi” 1978. 41-89 b.

⁹Sirojiddinov Sh.S., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari. Toshkent. Mumtoz so‘z. 2012. 21-69 b.

¹⁰Xolbekov M. Tarjimashunoslik va tarjima tanqidi. Toshkent. Navro‘z. 2014. 19-81 b.

tufayli tarjimaning kitobxonga estetik ta'sirini ta'minlash kabi dolzarb masalalar ustuvor deb belgilanadi. Binobarin, komparativistika yo'nalishdagi qiyosiy tipologiyaning eng muhim va asosiy vazifalaridan biri – tarjima amaliyoti dalillarini sinchkovlik bilan o'rganib chiqish, mavjud asoslarni umumlashtirish yo'li bilan badiiy tarjima nazariy asoslari uchun zaruriy zamin yaratishdan iboratdir. Biz Zulfiya lirik asarlarining tarjimasini misolida qiyosiy adabiyotshunoslikda yuzaga keladigan muammolar va ularning bartaraf etish yo'llarini topishga harakat qildik.

Ushbu bobning ikkinchi fasli *“Zulfiya asarlarining tarjimadagi xususiyatlari haqida”* deb nomlanadi. Tarjimashunoslikda hozirgacha bo'lgan davrda asosiy e'tibor rus tili manbalaridan tarjima yoki rus tili orqali boshqa tillardagi manbalardan o'girish tarzida amalga oshgan. Buni O'.Salomov, N.Komilov, N.Karimov, B.Nazarov, H.Umurov, G.Umurova, M.Xolbekov, B.Xolbekova (Zulfiya asarlari tarjimasini misolida), N.Vladimirova va boshqalarning tadqiqot va ilmiy ishlarida kuzatishimiz mumkin.¹¹

Badiiy asarlarni asliyat tilidan o'zga tillarga tarjima qilishda tarjimonning mahorati birinchi yo'nalish sanalsa, tarjima tamoyili ikkinchisi bo'ladi. Uchinchidan esa tarjima qilingan yoki qilinayotgan asarning mazmuni asl tildagi milliylikni o'zga tilga tarjima qilinganda mazmun-mohiyatini, kognitiv-estetik xususiyatini, davrga munosabati, o'sha davrdagi mavjud ijtimoiy tuzumga munosabati, asardagi realizm va romantizm, modernizm elementlarini o'zga tilga singdira olishi kabi qator talablar ham tarjimondan yuksak mahorat talab etadi. Bu - masalaning asosiy tarjima ishlari bilan bo'liq ekanligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda, Zulfiya she'riyatiga o'ziga xos bo'lgan bir o'ziga xususiyatni ta'kidlash joiz. Shoira she'r mavzusi qanday bo'lishidan qat'iy nazar voqelik yoki tuyo'ular bayonida sanash ohangidan foydalanadi. Zulfiyaning har bir she'rini mutolaa qilarkanmiz, so'zlarining zamirida hayotga chanqoqlik, intilish, ertangi kunga umid va ishonch sezilib turadi.

O'zbek adabiy aloqalarida tarjimashunoslik, ya'ni badiiy asar tarjimasini dominant bo'lgani kabi, o'zga tilga o'zbek adabiyoti durdonalarining mujassamlasha borishi adabiy aloqalar jahon adabiyotida o'ziga xos xususiyatga egaligi bir qancha imkoniyatlarni ochib bergan. Bular esa tarjimashunoslikda o'ziga xos tamoyillar mazmunida amalga oshadi.

Bobning uchinchi fasli *“Zulfiya lirikasi: asliyat va tarjima muammolari”* deb nomlangan. Asliyatning o'ziga xosligini, uning tilini saqlab qolish asardagi voqelikni teranroq idrok qilish, kitobxon va adabiy qahramonni o'zaro yaqinlashtirish, asar yaratilgan davr ruhini real talqin etish vazifasini bajardi. Asliyat va tarjima amalga oshirilgan vaqt, odatda, ma'lum bir darajada farq qilishi tabiiy. Shu sababdan asliyat ruhini borligicha, butunligicha qayta yaratish mas'uliyati tarjimondan asar tilidagi lisoniy birliklarni to'g'ri tanlashni taqozo etadi.

¹¹ H.Umurov . Adabiyotshunoslik nazariyasi . Toshkent A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti 2004.107-120 betlar; Salomov F. Adabiy an'ana va badiiy tarjima. - T. "Fan" n., 1980. 158 b.;Komilov N. Taфаккур карвонлари.- Тошкент.: Маънавият, 1999.;211б.;Каримов Н.Адабий алоқа ва бадий таржиманинг янги уфклари // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2015 № 3, 4-б.; Zulfiya. I was love. Poems. Translation by B.Kholbekova.Tashkent-2015. "Akademnashr"

Ishimizning ob'yekti sifatida B.Xolbekovanning "I was love" "Men ishq edim" she'riy tarjimalar to'plami olindi. Ikki o'giz mutarjim haqida ma'lumot berishni joiz deb topdik. Tarjimashunos olim va shoira Begoyim Xolbekovanning tadqiqotlarida buyuk adiblarimiz asarlarining bir necha asr ilgari ingliz, frantsuz, nemis, boshqa G'arb tillariga tarjima qilinganligi haqida ma'lumotlar beriladi.¹² Zulfiyaning bir nechta she'rlari havaskorlar tomonidan ham ingliz tiliga tarjima qilindi. Lekin aynan B.Xolbekovanning tarjimalari asliyatga yaqinligi bilan kitobxon e'tiborini tortadi.

Quyidagi o'zbek tilidan bevosita ingliz tiliga amalga oshirilgan tarjimada mazmun, shakl va ohang asliyatga juda muvofiq tushgan:

Hearts are together, tunes clear,	Yuraklar jo'r ekan, ovoz hamohang.
There is no need for a splendid hall.	Zarra ehtiyoj yo'q muhtasham zalga.
To this poem garden from far, near The	Bu she'r boo'iga go'zal, rang-barang
bards have brought their songs all. ¹³	Qo'shiq solib kelgan har shoir dilga. ¹⁴

She'r sodda barmoq vaznida yozilgan bo'lib, *abab* tarzida qofiyalangan. 6-5 turoq shaklida ifoda etilgan. Ingliz she'riyatiga xos yamb shaklda o'girilgan deyishimiz mumkin. Parcha ingliz tiliga o'ziga xos badiiy mahorat bilan o'girilgan, hajm siriqligi saqlanib qolib, misralardagi so'zlar miqdori deyarli teng, mazmuniy yaxlitlikka putur etmagan. Tarjimada ham shoironing nafasi sezilib turibdi, ko'tarinki kayfiyat, mushoiraga xos zavqu shavq, o'zaro ma'naviy-ruhiy jihatdan yaqin kishilar uchrashuvlaridagi quvonch, qoniqish hissi go'zal shaklda yuzaga chiqqan.

"Zulfiya she'riyati tarjimalarida obrazli uslubiy vositalarni qayta yaratish muammolari" deb nomlangan ikkinchi bobning dastlabki faslida *"Zulfiya she'rlari tarjimasida original yondashuv masalalari"* o'rganilgan. Zulfiya she'rlarining ruhi va ohangini, mazmuni va yo'nalishini, maqsad, o'oyasi va ideallarini belgilagan narsa umuminsoniy fikr va tuyo'ulardir. Uning she'riyatida hayot zavqi ham, yaratish shavqi ham, o'oliblik o'ururi ham, kelajak sururi ham, insonlar baxti ham, oshiqlar ahdi ham, xalqning o'z zamonasida yovdan, yomonlikdan o'azabi ham, qiro'in urush keltirgan hijron azobi ham, ayolning uluo' toqati ham, chin sadoqati ham, kemptiklik armoni ham, do'stlikning darmoni ham, xullas xilma-xil hayotiy, insoniy tuyo'ular, fikrlar, o'oyalar ifodalanishida asarlar mazmuni motivlari poetik tamoyillar yo'nalishidagi xilma-xil poetik obrazlarning

¹² Jumladan Begoyim Xolbekova tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan Alisher Navoiyning 110 dan ortiq g'azallarini, "Ma'nolar xazinasini" "From the Treasure of Meanings", xalq shoiri Erkin Vohidovning "Sevgilimga maktub" "A letter to my Beloved", Zulfiyaning saralangan she'rlaridan tashkil topgan "I was love" "Men ishq edim" sh'erlar to'plamlarini, Nodir Jonuzoqning "Navoiy" she'rini, Zahridin Boburning g'azallarini ingliz tiliga tarjima qilgan. Mumtoz adabiyotimizning sara g'azallaridan iborat "Qalbim sizga intiladi" "My soul strives for you" tarjimalar to'plami chop etilgan. Bundan tashqari mutarjim ingliz shoiri Robert Burnsning "Yor ko'nglining qiroliman" she'rlar to'plamini o'zbek tiliga, Aleksandr Faynberning she'rlarini "Ishq degani bir qarashda tuyular oson" nomli to'plamini o'zbek va ingliz tillariga mohirona tarjima qilgan. Begoyim Xolbekovanning "Diydor shirin" "Sweet image", "Muhabbat muhri" "Seal of love" she'riy to'plamlari ham nashrdan chiqarilgan. Uning tarjimalachilikka qo'shgan munosib hissasi uchun hukumatimiz tomonidan 2020 yil "Do'stlik ordeni" va boshqa mukofotlar bilan taqdirlangan.

¹³ Zulfiya. I was love. Poems. Translation by B.Kholbekova. Tashkent-2015. "Akademnashr" p.31

¹⁴ Zulfiya. Asarlar. Ikkinchi jild. Mushoira. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti-1985. 160 b.

yuzaga kelishiga asos bo'lgan.¹⁵ Shoiraning hammani “yuragiga yaqin olishi”, hammani “ko‘zu qosh” singari do‘st, “abadiy yelkadosh, taqdiridosh, birodar” deb bilishi, “hamma bilan ishi borligi” va “yurtim xaritasi – mening yuragim” kabi motivlardagi lirik asarlari shular namunasi. Yuqoridagi fikrlar shoira ijodiga shunchaki munosabatda bo‘lishni inkor etib, mutarjimdan uning his tuyo‘ularini birgalikda his etishi, shoira ijodidagi pafosni asl holida saqlab qolishni talab etadi. Poetik tamoyillar takomili va ularning shakllanish paradigmasida, Zulfiya barkamol ijodining yuragini, haroratini, ruhini belgilagan omil ham, undagi yuksak, jo‘shqin va faol insonparvarlik o‘oyalari tarjimada aks ettira olsagina maqsadga erishish mumkin.

Bobning ikkinchi fasli “*Shoiraning poetik mahorati: obrazlar hamda obrazlilik tamoyillari*” deb nomlanadi.

She‘riyatning asosi bo‘lgan obrazning muhim qirralaridan biri adib (asar muallifi) va lirik qahramon munosabatlarida bo‘rtib ko‘rinadi. Ular o‘rtasidagi savol va javoblar, murojaat, epigramma, eklog, hijron, iztirob, jo‘shqinlik, hayotga intiluvchanlik, yaxshi va yomonga munosabat, tabiat va jamiyat a‘zolariga munosabat kabi motivlarda gavdalanadi. Bu motiv va yo‘nalishlar Zulfiya lirikasida to‘liq o‘z aksini topgan.

Zulfiya ijodida “Yo‘l” motivi kabi alohida obrazlar ham mavjudki, bu ijodkorning obraz va obrazlilik motivlarini tanlashda ijodiy yondashuvni talab etadi.

O‘zbekcha varianti:

Yo‘l, qishloq, shaharlar, dengizlar orti,
Goh yerda, goh ko‘kda, goh suvda yo‘lim.
Quroqday turli yer, inson hayoti,
Turlicha o‘y, kurash, turlicha qo‘nim.¹⁶

Tarjimasi:

Roads, villages, cities, overseas,
Sometimes on earth, sometimes in heaven,
sometimes in water.
Dry land, human life,
Different thoughts, struggles, different landings.¹⁷

Inglizcha tarjimasida deyarli barcha so‘zlar tarjimasi so‘zma-so‘z berilgan. Ammo “*Quroqday turli yer*” “*Dry land*” tarzida no‘to‘o‘ri o‘girilgan. “*quroq*” so‘zining ma‘nosi “*bir bolak, kichik parcha*” ma‘nosini anglatadi.¹⁸ “*Dry land*” jumlasida esa “*quruq yer*” ma‘nosini beradi. Mutarjim shu yerda “*quroq*” va “*quruq*” so‘zlarining ma‘nolarini butunlay chalkashtirib yuborgan. Ushbu she‘rning inglizcha variantida “*Yo‘l*” “*Roads*” tarzida, “*goh suvda yo‘lim*” jumlasida uchun “*sometimes in water*” muqobili tanlangan. Bunda tarjimonning faktual tarjima usulidan foydalanib adekvatga erishganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekcha varianti:

Hamrohim: intilish, qo‘shiq va mehr,
Quyosh yo yersimon yo‘ldaman har dam.
Hatto, tun uyquga etganda asir
Ertaga eltadi to‘shak-kemam ham.¹⁹

Inglizcha varianti:

My companion: aspiration, song and
kindness,
I am always on the sun or the earth.
Even captured when the night falls asleep

¹⁵ Vinokur G.O. Lingvistika i poetika. M.: 1960. Str.43. Atabekova B. Prinsipi peredachi svoyeobraziya uzbekskoy poezii v russkix perevodax (na materiale tvorchestva G.Gulyama (Avtoref.kand.filol.nauk. Tashkent.1995; 23 s

¹⁶ O‘sha asr 186 b.

¹⁷ O‘sha asar 68 bet

¹⁸ A.Madvaliyev “O‘zbek tilining izohli lig‘ati.” <https://ziyouz.uz/durdona-toplamlar/uzbek-tilining-izohli-lugati384> bet

¹⁹ O‘sha asar 148 b

I'll have a bed tomorrow.²⁰

Bu misralarda ham “yo’l” obrazi orqali odamlarning kechayu kunduz tinimsiz yo’ldagi hayot mazmuni uchun ildamlab borishi go’zal tashbehlarda tavsiflanyapti. B.Xolbekova “yo’ldaman” jumlasini “on... the earth” shaklida tarjima qilishi she’rning asliyatdagi ma’nosidan bir muncha uzoqlashganligini ko’rishimiz mumkin. Shoira “*Quyosh yo yersimon yo’ldaman*” deya inson umrining mazmuni ifodalaydi. Mutarjim she’rdagi obrazning mohiyatiga chuqur e’tibor bermaganligi ko’rinib turibdi. Bu esa “yo’l” obrazining inglizcha variantida yo’qolishini anglatadi.

Bobning uchinchi fasli “*Lirik talqinda adekvat yondashuvning o’ziga xos yo’nalishlari*” deb nomlangan. Bu faslda milliy she’riyatimizning o’ziga xos xususiyatlari va ularni tarjimada qayta yaratish muammolari xassos shoira Zulfiya lirikasi misolida tekshirildi. Zulfiya she’riyatining inglizcha tarjimalarida adekvat yondashuv, o’zbek va ingliz she’riyatining o’ziga xos hodisalari aniq misollar yordamida qiyosiy o’rganildi. O’zbek she’riyatining barmoq tizimiga xos xususiyatlar ingliz sillabik tizimi bilan o’xshashlik va farqli tomonlari imkon qadar ko’rsatildi.

Lirik talqinda adekvat yondashuvning o’ziga xos yo’nalishlari mavjud bo’lib, unda adabiy-badiiy asarlarning asliyatga nihoyatda yaqin keladigan tarjimalari amalga oshiriladi. V.N.Komissarov o’zining “Tarjima nazariyasi(lingvistik aspektlar)” kitobida adekvat tarjimaga xalaqit beradigan to’rtta asosiy belgilarini sanab o’tgan.²¹

1. Asl nusxaning mazmunini qo’pol ravishda buzib ko’rsatadigan xatolar;
2. Tarjimaning ma’nosini to’liq buzmaydigan, lekin birmuncha o’zgarishga sabab bo’ladigan xatolar;
3. Umumiy ma’noni buzmaydigan, stilistik xususiyatlarni o’zgarishiga olib keladigan xatolar;
4. Tarjima qilinayotgan tilni mukammal bilmaslik oqibatida til me’yorlarining buzilishi.

G.Salomov esa “Til va tarjima” kitobida “tarjima adabiyotining sifatini oshirish hamda barcha tarjimalarni chinakam adekvat darajasiga ko’tarish”²² haqida so’z yuritib, “asl nusxani to’liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima” ekanligini ta’kidlab o’tadi.²³

Yuqorida sanab o’tilgan adekvatlikka ershish yo’llari Zulfiya asarlarini tarjima qilishda qay darajada foydalanilganini quyidagi misollarda ko’rib chiqamiz:

<i>Asliyatda</i>	<i>Tarjimasi</i>
O’ltiribman daryo bo’yida, Yuragimda rashk bilan havas. Daryo oqib borar... qo’ynida Quyosh nuri, bahorgi nafas. ²⁴	I’m sitting in the side of river, There’s envy and desire in my heart. River is flowing in its chest, Sunrays, spring breeze in its heart. ²⁵

²⁰ O’sha asar 32 b

²¹ Комиссаров, В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты) . – М.: Высш. шк., 1990. – 253 с.

²² Salomov G’. Til va tarjima. Fan nashriyoti.Toshkent-1966.55 bet

²³ mov G’. Til va tarjima. Fan nashriyoti.Toshkent-1966.273-274 betlar

²⁴ O’sha asar 53 b

²⁵ O’sha asar 236 b

Mazkur she'ning tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, she'r 4-5 turoqli, *ab, ab* tarzida qofiyalangan. Ingliz tilida tetrameter²⁶ tarziga to'o'ri keladi. Begoyim Xolbekova asl nusxani aynan so'zma-so'z aks ettirishga intilganini ko'ramiz. Masalan, "*O'ltiribman daryo bo'yida*" jumlasini "*I'm sitting in the side of river*" tarzida o'girilgan. Parchadagi qolgan misralar ham shu yo'sinda tarjima qilingan. Ammo "*qo'ynida*" "*in its chest*" tarzida noto'o'ri tarjima qilingan. "*chest*" so'zi "*sandiq, quti, ko'krak qafasi, xazina*" kabi ma'nolarini beradi.²⁷

Bu holat go'yoki tarjima buzilgandek ko'rsatadi. Ammo o'zbek tilidagi "*daryo o'z o'zanida oqadi*" iborasidagi "*o'zan*" so'zini "*chest*" tarzida o'giran. Bizning fikrimizcha jumla adekvat tarjima qilingan deyishimiz mumkin. Boshqacha aytganda, "asl nusxani to'liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima"ga erishgan.

Adekvat tarjimaning muammolari va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash ancha murakkab va bahsli jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, she'riy tarjimalarda adekvatlikni saqlab qolish mutajimdan ikki barobar ko'p mashaqqat, sabr va iqtidorni talab etadi. Zulfiya she'rlarini asl holida adekvat tarjimasiga erishish uchun bir nechta tahlillarni amalga oshirishga va o'z fikrimizni bayon qilsihga harakat qildik.

<i>Asliyatda</i>	<i>Tarjimasi</i>
Men ishq edim,	I was love,
Ishqdan mastdim bearmon,	I was greatly dizzy with love,
O'ttizga yetmay bir zarbdan uygondim.	A sad blow woke me up when I was hardly
Keyin oltingugurt olovisimon,	thirty.
Ko'rinmay hijronning dog'ida yondim... ²⁸	Then in separation I was aflame
	Like a sulfur flame ²⁹

Yuqoridagi parchada mutarjim taglama usulidan foydalanib o'giran. She'ning ikki tilda hajmi, tuzilishi va ohangdorligi deyarli bir xil. So'zlar lu'o'aviy jihatdan ekvivalent holatda. Mutarjim badiylikka e'tibor berib, ta'sirchanligini saqlab qolgan deyishimiz mumkin. Tarjima qilishda ikki tilning she'riy tuzilishidagi farqlarni hisobga olish kerak. O'zbek va ingliz tillarida she'ning qofiya, ritmi keskin farqlansada, mazkur parchada bu holat ko'zga tashlanmaydi. Ingliz tilida so'zlarning bo'o'inlari kamligini hisobga olmaganda, bu holat ham adekvatlikka erishishga to'sqinlik qilmagan.

Dissertasiyaning "**Zulfiya lirikasidagi o'oyaviy-badiiy pafos va milliylikni tarjimada aks ettirish tamoyillari**" deb nomlangan uchinchi bobining birinchi faslida "*She'riy tarjimada badiiy pafos*" xususida bahs yuritilgan.

O'zbek she'riyati tarjimasida badiiy niyatni ifodalashining o'oyaviy pafos bilan boo'liqlik jihatlari ko'p. Shu masala yuzasidan o'rtaga tashlanadigan fikrlar o'zbek she'riyati tarjimalarida pafosning aks etishi muammolari masalalari bilan boo'liqlik ishda ham o'z aksini topadi. Foyaviy-badiiy pafos va ularning badiiy niyat bilan boo'liqlik masalalari akademik N.Karimov, O'.Salomov, I.Sulton, N.Komilov,

²⁶ Lethbridge S.Mildorf J.Basics of English Studies, Version 12/03, Poetry. London: Rupert Hart-Davis.p.149

²⁷ Гальперин И. Р. Большое англо-русский словарь. Изд. «Советская энциклопедия» Москва-1972.стр.247

²⁸ Zulfiya. Saylanma .«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyyati Toshkent-2016. 39 bet

²⁹ B.Xolbekova. I was love. Akademnashr.Toshkent-2016. 7 bet

M.Baqoeva, M.Olimov, I.O‘aniev va boshqalarning ishlarida ayrim pafos detallari tavsif etiladi.

“Pafos esa g‘oya bilan bog‘liq bo‘lgan hisni, biror g‘oyaga maftunlik natijasida ijodkorda paydo bo‘lgan qattiq hayajonni, ko‘tarinki ruhni bildiradi.”

³⁰Pafosning tarjimadagi in‘ikosi she‘r mualliflarining ma‘lum ma‘noda xarakterini, shoir shaxsining ruhiy olamini anglab tarjimada berish imkonini yaratadi. O‘z navbatida pafos orqali shoir qalbida junbo‘shga kelgan ehtiros aslida muayyan bir o‘yoa zamirida asarni yozish niyati bilan ufodalanadi. Pafosni saqlashda ham tarjimon oldida qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tarjimon poetik asarni talqin etarkan, ehtiros, o‘yoa, maqsad, dunyoqarash kabi muallifni asar yozishga undagan niyatini anglab olishga harakat qiladi. Tarjimon she‘r o‘oyasini ochishga xizmat qiluvchi so‘zlarni ajratib olishni maqsadga muvofiq deb hisoblashga xolisona baho berish mezoniga tayanib ifodalaymiz.

Zulfiya lirikasida XX asr ikkinchi yarmidagi ziddiyatli ijtimoiy tuzum mohiyati, milliy ziyolilarning o‘tish davridagi o‘yoa, mafkura, e‘tiqod, qarashlar to‘qnashuvi aslicha, boricha, tabiiy inkishof etilgan. Muallif pafosi bilan qahramonlar ehtirosi uyo‘un. Shoir xolis bir yo‘l, usul tanlagan. Ruhiiy kechinmalar, ma‘naviy aqidalar, ishq, shuhrat, o‘azab, qo‘rquv, jasorat kabi insoniy hatti-harakat va munosabatlar san‘atkorona tasvirlangan. Shoir she‘rlarida ham mulohaza asosidagi hayot, ham ehtirosli munosabatlar uyo‘un. Ularda dramatik va tragik pafos ham qorishiq. “*O‘rik gullaganda*”, “*Sensiz*”, “*Soo‘inib*”, “*Sen qaydasan, yuragim*”, “*Bahor keldi seni so‘roqlab*”, “*Ne baloga etding muftalo*” kabi she‘rlarning har biri vaziyat o‘z ziddiyati, harakat kuchi, kolliziyasiga ega. Har bir qahramonning ichki olami, ziddiyatlari, psixologiyasi, avvalo, vaziyatlarda, so‘ng kollizm va hatti-harakat, xarakterlar dialektikasida ochib boriladi. Shoiraning hayotni nozik kuzatishi ostida tabiiy, hayotiy asos bor, tajriba bor. Ayniqsa, bevosita shoiraning biografiyasiga daxldor she‘rlarda lirik pafos kuchli.

Badiiy pafos Zulfiyaning urush yillaridagi asarlariga ayniqsa xosdir. “Yo‘l”, “Ayriliq”, “Hijron”, “Iztirob” motivlaridagi obrazlar tizimi mavjudligi esa nafaqat pafosni ifodalashda, balki estetik did orqali amalga oshadigan tamoyillarning tavsifida aniq ko‘zga tashlanadi.

B. Xolbekovanning shunday his-tuyo‘ularga to‘la she‘rni ingliz tiliga o‘girishga urinishi tarjimonning dadilligidan dalolat beradi. Tan olish kerakki, Zulfiyaning ayriliq, soo‘inch tuyo‘ularini sezish va unga “*dardkash*” bo‘lish uchun o‘quvchi matnning konseptual jihatlarini anglashi lozim. “Bahor keldi seni suroqlab” she‘rida tabiat hodisa unsurlaridan muallif mohirona foydalangan.

Shoir “*salqin*”, “*sahar*”, “*binafsha labi*”, “*yellarning nozi*”, “*baxmal vodiy*”, “*qishning yoqasi*”, “*shabboda*”, “*yashil qiro‘oqlar*”, “*qo‘shio‘i mavjlanib bir daryo oqqan*” kabi tabiat unsurlari she‘rning qimmatini yuksak darajaga ko‘targan deyishimiz mumkin. Shunisi quvonchliki, B.Xolbekovanning tarjimasida asliyatning bu fazilatlarini lozim darajada saqlanib qolgan.

³⁰ Izzat Sulton. Adabiyot nazariysi. O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijod uyi. Toshkent-2005. 91-bet

Asliyatda

Salqin saharlarda, bodom gulida,
Binafsha labida, yerlarda bahor.
Qushlarning parvozi, yellarning nozi,
Baxmal vodiylarda, qirlarda bahor .

Tarjimada

At nice dawns, in the almond flowers,
The spring appeared , beautiful spring.
In the velvet valleys, in the lilac's lips,
The spring smiled , beautiful spring.

